

INKLUZIV TA’LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedra o’qituvchisi

Tojiboyeva Iroda Dadaboy qizi

Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda
xorijiy ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: Maqlada mamlakatimizda inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy qilinishining zarurati, mazkur tizimni joriy etish oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari bayon etilgan.

Kalit so’zlar. Inklyuziv ta’lim, ko’tarish qurilmasi, pandus, tutqich, maxsus pedagog, imkoniyati cheklangan bola, mutaxassis.

Abstract: The article describes the need to implement inclusive education in our country, the problems facing the introduction of this system, and ways to overcome them.

Key words. Inclusive education, lifting device, ramp, handrail, special pedagogue, disabled child, specialist.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga e’tibor so’nggi yillarda eng dolzarb masala sifatida diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini qo’llab-quvvatlash maqsadida ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv o’qitish masalasi butun Juhon hamjamiyatida tan olingan va xayrioxlik bilan amalga oshirilishi ta’lim siyosatining eng asosiy yo’nalishidir. Konstitutsiyamizning 50-moddasida: “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari ega bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” deb belgilab qo’yilganligi mamlakatimizda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim jarayoni tashkil etilganligining qonuniy dalilidir. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang’ich tayanch-korreksion sinflar faoliyatini yo’lga qo’yish hamda o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Maxsus

yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalarini tizimida o'qitish borasida respublikamizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sodan Farmoni bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lif xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ularni o'qitish uchun inklyuziv ta'lif tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash, alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lif olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlash to'g'risida"gi qarorda malakatimiz ta'lif muassasalarida inklyuziv ta'lifni joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslari, joriy etish tartibi, me'zonlari belgilangan. Unga ko'ra, o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lif olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda inklyuziv va boshlang'ich tayanch korrekcion sinflar tashkil etiladi. Ta'lif muassasalarimizda sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikdagi ta'lif tizimining joriy etilishi yurtimizda xalqaro inson huquqlari me'yorlariga mos islohotlar amalga oshirilayotganining dalilidir. Zamonaviy maktablarini qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lifni tashkil etish bo'yicha Zamonaviy maktabga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lilda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rinni tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'litiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiyonalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish

yeterli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Alovida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qitish ya'ni inklyuziv ta'lim uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim:

- nogironlikni erta tashxis qilish;
- umumta'lim muassasalari binolarida alovida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshootlar)ni yaratish;
- korreksion yordamni amalga oshirishning markaziy tarmog'ini ko'paytirish;
- umumta'lim muassasalari va maxsus ta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, ya'ni —birodarlashgan muassasalar faoliyatini yuzaga keltirish;
- ayrim nogiron bolalarni umumta'lim muassasalari sharoitida o'qitishni tashkil etish maqsadida umumta'lim pedagoglari malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish va ularni maxsus yordamchi vositalar, o'quv-metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta'limni tashkil etish;
- barcha bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish;
 - o'quv ish rejalarini tashkillashtirishda bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularga alovida yondashuvli ish rejali shirxish chiqish;
 - imkoniyati cheklangan bolalarning oilasi va MTT o'rtasida uzviy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish;
 - ota-onalarga inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyatini tushuntirish;
 - imkoniyati cheklangan bolalarga qulay shart-sharoit yaratish, fazilatlarga yo'g'rilgan munosabatni rivojlantirish;

- sinf o'qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- zaruriy o'quv qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- o'quv reja, dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o'zgarishlarga ko'niktirish masalalarini shakllantirish;
- o'qituvchilar ko'nikma va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- faol qo'llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o'z ichiga olgan ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta'lif jarayonida do'stona munasabatni shakllantirish;
 - bolalarni aniqlash va baholashda ma'muriyatga yordam ko'rsatish;
 - ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirish;
 - davlatlararo keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirish;
 - imkoniyati cheklangan bolalar uzlucksiz inklyuziv ta'lmini takomillashtirish;
 - metodik majmualar (dastur, darslik, o'kuv reja metodik qo'llanma; va tavsiyalar)
- yaratish;
- yangi tahrirdagi DTSlarini maxsus ta'limga moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim mакtablarida ta'lim olishlarini nuqson turiga ko'ra(ko'rish, eshitish, aqliy va nutqiy rivojlanishini) e'tiborga olgan holda individual rivojlantiruvchi variativ o'quv reja -dasturlarini ishlab chiqish;
- respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishning markalashtirilgan bazasini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yaratish;
- umumta'lim, maxsusta'lim pedagoglarini hamkorlikda faoliyat ko'rsatishini amalga oshirish va imkoniyati cheklangan hamda sog'lom tengdoshlari orasida do'stona munasabatni shakllantirish.

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'lidan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatları, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Xulosa qiladigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir. Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o'zgardi, ota-onalarning bolalariga e'tibori ortdi, ta'lim olishlari uchun qiziqishlari yanada ortdi. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim mussasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos muammolari va qiyinchilaklari bo'lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda, bu esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning noan'anaviy shakllarni yaratishni taqazo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohibda ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori
2. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta'limi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014 yil 3 son
3. Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi “Inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolar va ularni bartaraf etish etish yo'llari”.
<https://cyberleninka.ru/article/n/>.

**Research Science and
Innovation House**